

ISSN: 2181-4066

DOI Journal 10.56017/2181-4066

JOPAPS




JOURNAL OF PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL STUDIES

Volume 1, Issue 5

ПЕДАГОГИК ВА ПСИХОЛОГИК ТАДҚИҚОТЛАР

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ И ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ
ИССЛЕДОВАНИЯ



ISSN: 2181-4066
DOI Journal 10.56017/2181-4066

ПЕДАГОГИК ВА ПСИХОЛОГИК ТАДҚИҚОТЛАР

I-ЖИЛД, 5-СОҢ

ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ И ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЙ

ТОМ-I, НОМЕР-5

PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL STUDIES

VOLUME-I, ISSUE-5

ТОШКЕНТ - 2023

ПЕДАГОГИК ВА ПСИХОЛОГИК ТАДҚИҚОТЛАР

ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ И ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЙ | PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL STUDIES

№ 5 (2023) DOI <http://dx.doi.org/10.56017/2181-4066-2023-5>

Бош муҳаррир:

Нишонова З. – психология фанлари доктори, профессор

Масъул муҳаррир:

Давлатов О. Ғ. – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори

Таҳририят аъзолари:

Абдужаббарова М. – педагогика фанлари номзоди, доцент
Абдурахимов Қ. – психология фанлари бўйича фалсафа доктори
Акмалов А. – педагогика фанлари номзоди, доценти
Акрамова Ш. – педагогика фанлари доктори, профессор
Алиев М. – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори
Джураев Д. – педагогика фанлари доктори
Душанов Р. – психология фанлари номзоди, доценти
Негматовна Г. – педагогика фанлари номзоди, доцент
Разакова Р. – психология фанлари бўйича фалсафа доктори
Тожибоева Г. – психология фанлари бўйича фалсафа доктори
Тожибоева Г. – психология фанлари бўйича фалсафа доктори
Тўйчиева С. – психология фанлари номзоди, доцент

Мазкур фанлараро илмий-амалий журнал Ўзбекистон Республикаси Президенти Администрацияси ҳузуридаги Ахборот ва оммавий коммуникациялар агентлиги томонидан 2022 йил 22 декабрь куни № 054834-сонли гувоҳнома билан оммавий ахборот воситаси сифатида давлат рўйхатидан ўтказилган.

Саҳифаловчи\Page Maker\Верстка: Абдурахмон Хасанов

Таҳририят манзили: <https://imfaktor.uz>, 100152, Тошкент шаҳри, Учтепа тумани, “Ватан” МФЙ, Чилонзор 24-мавзеси, 2/27-уй.

Телефон номер: +99894-410 11 55, E-mail: tahririyat@imfaktor.uz

© IMFAKTOR Pages, 2023 йил.

© Муаллифлар жамоаси, 2023 йил.

ПЕДАГОГИК ВА ПСИХОЛОГИК ТАДҚИҚОТЛАР

ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ И ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЙ | PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL STUDIES

Психология фанлари

SHAVKATOVA Shaxnoza Po'lot qizi

Buxoro davlat universiteti

Amaliy psixologiya ta'lim yo'nalishi talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7981186>

OILAGA PSIXOLOGIK XIZMATNING ZARURLIGI

ANNOTATSIYA

Maqolada oilalarga psixologik xizmatning zarurligi, oilaning mustahkamligini saqlashdagi aspektlar haqida bayon etilgan. Bugungi kunda ko'pchilik oilalarda kuzatilayotgan muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari haqida ma'lumotlar keltirilgan. Oilaviy nizolarning kelib chiqish sabablari yoritilgan. Oilalarda uchraydigan krizislar va ularning tamoyillari keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: psixologik xizmat, oila, nizo, ijtimoiy guruh, ziddiyat, stress, diskomfort. tushkunlik, befarqlik, tajovuz, streotip, garmoniya.

ШАВКАТОВА Шахноза Пулат кизи

Бухарский государственный университет

Студент прикладной психологии

ПОТРЕБНОСТЬ В ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ СЛУЖБЕ СЕМЬЕ

АННОТАЦИЯ

В статье описывается необходимость психологической помощи семье, аспекты сохранения семейной стабильности. Сегодня дается информация о проблемах, наблюдаемых в большинстве семей, и способах их устранения. Объясняются причины семейных конфликтов. Упоминаются кризисы, возникающие в семьях, и их принципы.

Ключевые слова: психологическая служба, семья, конфликт, социальная группа, конфликт, стресс, дискомфорт. депрессия, апатия, агрессия, стереотипность, гармония.

SHAVKATOVA Shakhnoza Pulat kizi

Bukhara State University

student of applied psychology

THE NEED FOR PSYCHOLOGICAL SERVICE TO THE FAMILY

ANNOTATION

The article describes the need for psychological services for families, aspects of maintaining family strength. Today, information is given about the problems observed in most families and ways to eliminate them. The causes of family conflicts are explained. The crises that occur in families and their principles are mentioned.

Key words: psychological service, family, conflict, social group, conflict, stress, discomfort. depression, apathy, aggression, stereotyping, harmony.

Oila qon-qarindoshlik, qarindoshchilik (nikoh orqali) yoki birga istiqomat qilish orqali bogʻlangan odamlardan iborat ijtimoiy guruhdir. Koʻp jamiyatlarda oila bolalar ijtimoiylashuvi uchun asosiy institut vazifasini oʻtaydi. Antropologlar oilalarni matrilokal (ona va uning bolalari), er-xotin (bolalari boʻlsa, nuklear oila deyiladi) va qon-qarindosh (nuklear oila va qaynata-qaynana birga yashovchi) tiplarga ajratishadi.

Oila - nikoh yoki tugʻishganlikka asoslangan kichik guruh. Uning aʼzolari roʻzgʻorining birligi, oʻzaro yordami va maʼnaviy masʼuliyati bilan bir-biriga bogʻlangan. Oilaning eng muhim ijtimoiy vazifalari -inson zotini davom ettirishdan, bolalarni tarbiyalashdan, oila aʼzolarining turmush sharoitini va boʻsh vaqtini samarali uyushtirishdan iboratdir. Oilaviy munosabatlar nisbatan mustaqil hodisa sanalsa-da, jamiyatdagi mavjud ijtimoiy, iqtisodiy, mafkuraviy munosabatlar bilan belgilanadi va ular taʼsirida oʻzgarib boradi. Shunga muvofiq, har bir jamiyat oʻzgarib mos oila tipini, oilaviy munosabatlarni oʻrnatadi.

Oila jamiyat tarixida azaldan mavjud boʻlmagan. Ibtidoiy jamoa tuzumining birinchi bosqichida, kishilar toʻda-toʻda boʻlib yashayotgan davrda jinslar orasidagi munosabatlar muayyan tartib-qoidaga ega boʻlmay, toʻdadagi barcha erkaklar va ayollar bir-birlariga umumiy er-xotin hisoblangan. Tarixiy taraqqiyot jarayonida jinsiy munosabatlar asta-sekin muayyan tartibga solina boshlandi. Dastlab ota-ona bilan farzandlar, soʻngra aka-uka va opa-singillar orasidagi jinsiy munosabatlar taqiqlanib, guruhli oila paydo boʻlgan, lekin bu oilalarda hali er-xotin nikohi barqaror alohida xoʻjalikka ega boʻlmagan. Bu davrda tabiiy omil oʻz vazifasini tugalladi, yaʼni jinsiy munosabatlar doirasidan qon-qarindoshlar istisno qilindi, jinsiy munosabatlar faqat bir erkak va bir ayol munosabatiga aylandi (yana qarang: Patriarxal oila, Poliandriya, Poligamiya, Poliginiya) [1].

Maʼlumki, mutaxassisga murojaat etgan oilali odamlarning aksariyati turmush oʻrtogʻi yoki farzandlarining feʼl-atvori oʻzgarishini istaydi. Ular bu istagini odatda quyidagicha ifodalaydi: “Oʻgʻlim (qizim, erim yoki xotinim) bilan gaplashib qoʻysangiz, chunki u oʻzgarmasa yashash qiyin boʻlib qoldi!” Ammo vaziyat biz oʻylaganchalik oson emas. Chunki atrofimizda paydo boʻlayotgan barcha hayotiy vaziyatlarda bizning ham ulushimiz, taʼsirimiz borligini tushunish, yaʼni turli muammolarning paydo boʻlayotganiga oʻzimiz ham sababchi ekanimizni anglash zarur. Baʼzan nojoʻya feʼl-atvorimiz, xatti- harakatimiz bilan anglab yoki anglamagan holda noxush vaziyatlarni keltirib chikaramiz va okibatda uzoq vaqt iztirob chekib yuramiz. Psixolog xizmatiga murojaat qilishdan oldin ayrim kishilar mavjud muammolarni mustaqil ravishda hal etishga urinib, baʼzan qaltis yoʻl tutishi, deylik, uydan bosh olib chiqib ketadi, boshqa ish joyiga oʻtadi, farzandlariga “urush eʼlon” qiladi, arazlab, kunlab, oylab turmush oʻrtogʻi bilan gaplashmay yuradi. Lekin har safar hafsalasi pir boʻlib, hatti-harakatini samarasiz deb topadi. Chunki yuzaga kelgan yangi vaziyat ilgariyidan ham chigalroq ekanini anglab yetadi. Natijada odam oʻzini baxtsiz his eta boshlaydi, vaziyatni oʻzgartirishga kuch topa olmaydi, uni qiynayotgan muammolar chigallashib boraveradi [2].

Har qanday ijtimoiy guruh jumladan, oiladagi munosabatlar muayyan bosqichda yangicha qirralar kasb etadi. Masalan, deyarli xar bir oilada ota-ona va ulgʻayayotgan farzandlar oʻrtasidagi munosabatlarda anglashilmovchilik va ziddiyatlar koʻpayib borishini kuzatish mumkin. Bir tarafda - nazorat qilishga oʻrganib qolgan ota-ona, boshqa tarafda - hali hatti-harakati va qarorlari uchun maʼsuliyatni toʻliq his eta olmaydigan farzand turadi. Masalaning chigalligi shundaki, farzandlar ota-onalaridan mustaqil boʻlish va ular nazoratidan qutulish maqsadida baʼzan, hatto hayoti uchun xavf soladigan harakatlarni ham sodir etishi mumkin. Qalbi mehrga toʻlik ota-ona esa farzandlarni nazorat etish bilan ularni qiyin ahvolga solayotgani va baxtsiz qilayotganini anglab yetmaydi.

Tabiiyki, insonni oʻrab turgan muhit uning shakllanishida yetakchi oʻrin tutadi. Ulgʻaygan sari insonda unga xos boʻlgan, yon-atrofidadigilar ham maʼnoda namoyon boʻladigan (demak, oʻzgalar ham qoʻllab-quvvatlaydigan) hatti-harakatlar koʻzga tashlanadi. Psixologiyada stereotip deb atalgan bunday hatti-harakatlar koʻpincha anglanmagan holda amalga oshiriladi. Stereotip atrof muhitga, turli vaziyatlarga moslashish xamda ortikcha zoʻriqish-larsiz qaror qabul qilishga imkon beradi. Biroq ayrim hollarda stereotip shaxs kamoloti yoʻlidagi toʻsiqqa aylanishi va buning asorati shaxslararo munosabatlarga ham taʼsir etishi mumkin [3].

Inson botiniy olamida bunday holat ichki ziddiyat, stress va diskomfort sifatida aks etsa, tashqi fe'l-atvor va xatti-harakatda ishonchsizlik, befarqlik, tushkunlik yoki jahl, asossiz tajovuz kabi holatlarni keltirib chiqaradi. Bu hol insonning aqliy salohiyatiga salbiy ta'sir etib, uning ijodiy imkoniyatlarini cheklaydi.

Shunday qilib, yuqorida tilga olingan holatlar shaxs rivojini cheklashi va tabiiyki, oilaviy munosabatlarda ham muayyan muammolarning paydo bo'lishiga sabab bo'lishi mumkin.

Ko'p hollarda stereotiplarning salbiy ko'rinishi yosh er-xotinning o'z oilasidan olgan tasavvur va tushunchalarida namoyon bo'ladi. Bu stereotiplar anglangan ham, anglanmagan ham bo'lishi mumkin. Xususan, xar qanday oilaviy nizoni, er yoki xotin nazarida, biron bir sababga asosan oqlash mumkin. Eng qiziqarlisi shundaki, bunday hollarda er yoki xotin o'zi anglamagan holda ota-onasining oiladagi axloqiy timsoliga murojaat etadi. Masalan, yangi kelindan "bizning oilamizda axlatni erkaklar olib chiqardi" yoki yosh kuyovdan "hamma oilalarda tugmani ayollar qadaydi" degan e'tirozlarni eshitish mumkin.

Xuddi shunday e'tirozlar ovqatlanish, kiyinish, do'stlar bilan munosabatlar, bolalar tarbiyasi kabi holatlarda namoyon bo'ladi. Ilgarigi hayotiy tajribasiga o'ziga xos omil sifatida murojaat qilgan er-xotin boshqa minglab imkoniyatlarni qo'ldan chiqaradi va haqligini isbotlash yo'lida qattiq ruhiy iztirob chekadi, asabi qaqshaydi [4].

Oilaviy hayotning dastlabki pallasida yangicha hissiyotlar to'liqini turmushda paydo bo'ladigan muammo va ziddiyatlarni yumshatib turadi. Bu davrda oiladagi noxush vaziyat, er yoki xotin o'rtasidagi ichki nizo tashqi munosabatlarda deyarli namoyon bo'lmaydi. To'planib borayotgan zo'riqishning oldini olmaslik natijasida ikki juft orasidagi o'zaro tushunish, ishonch, tayanch nuqtalarida o'zgarish paydo bo'la boshlaydi va vaqt o'tishi bilan bu keskin nizoni keltirib chiqaradi. Shu ma'noda, boshqalar oldida er-xotin o'zlarini baxtli qilib ko'rsatishi psixologik nuqtai nazardan xatarlidir, chunki ichki norozilik, ikkiyuzlamachilik, aybdorlik hissi ertami kechmi, samimiylik, ishonch, sevgi, o'ziga ishonch, quvonch kabi hislardan ustun kelishi va asta-sekin bu yuksak insoniy tuyg'ularning so'nishiga sabab bo'ladi.

Demak, fe'l-atvor va hatti-harakatni o'zgartirish orqaligina vaziyatga, atrofdagilarga ta'sir etish va ular bilan o'zaro munosabatlarni sog'lomlashtirish mumkin. Shundagina har qanday keskin vaziyatni hal etish, yangi oilaga xos psixologik muhitni sog'lomlashtirishni e'tiborga olib, mavjud muammolarning oqilona yechimini topish mumkin bo'ladi, oilada o'zaro hurmat, bir – birini qo'llab – quvvatlash, tushunishga intilish, ishonch va muhabbat tuyg'usi shakllanadi.

Oilaga psixologik xizmat ko'rsatishda esa ushbu holatga jiddiy e'tibor qaratishga to'g'ri keladi.

Oiladagi inqirozlar:

1. Bosqich. O'rganish davri, Bu davr turmushning ilk 3-5-yiliga to'g'ri keladi. Bunda qaynona-kelin munosabatlari, birinchi farzand krizisi, er-xotinning bir-biri bilan yashashga o'rganishi bu yog'iga turmushning chiroyli kechishiga ta'sir qiluvchi muhim omil bo'ladi.

2. Bosqich. Moliyaviy muammolar davri. Turmushning ilk 3 yilidan yaxshi o'tib olgan juftliklar endi yangi muammolarga duch keladi. 2-bosqich odatda 5-7 yil davom etadi. Bu davrda odatda oilada yana bir farzand dunyoga keladi, yosh oila esa biron katta ishga qo'l uradi.

3. Bosqich. Zerikish davri. Turmushning 10 yilligidan boshlanadigan bu davrda oilada odatda bolalar bog'cha maktab yoshida bo'ladi, moliyaviy holat stabillashgan, er-xotin esa bir-biriga o'rgangan bo'ladi. Mana shunda er-xotin munosabatlari sinovdan o'tadi.

4. Bosqich. Bolalar muammolari kattalashgan davr. Endi er-xotin orasidagi suhbatlar farzandlar haqida, uydagi muammo va kelishmovchiliklar farzand tufayli, bahslashuv ham farzand mavzusida bo'ladi. Farzandlar kelajagi biroz aniqlashtirilganida bu davr ham asta sekin so'nadi.

5. Bosqich. Hosil olish davri. Mana shu davrdan boshlab er-xotin oilaviy umri davomida ekan urug'larining hosilini terishni boshlaydilar. Farzandlariga yaxshi tarbiya bergan bo'lsalar, ulardan chiroyli amallar ko'radilar [5].

Amalga oshirilgan tadqiqotlar natijasida oilalarning baxtli bo'lishining quyidagicha tamoyillari tuzildi:

a) Doim turmush o'rtog'ingiz bilan o'zingizni qiynayotgan narsalar haqida gapiring (ichingizga yutmang) va uni eshita biling.

b) Turmush o'rtog'ingiz kamchiliklariga sabrli bo'ling, axir sizda ham kamchiliklar yo'q emas.

c) Aldamang, samimiy bo'ling

d) Turmush o'rtog'ingizga ishoning, uning ozodligini cheklamang,

e) Uy yumushlarini bo'lib oling.

f) Turmush o'rtog'ingiz fikrini hurmat qiling, o'zingizga o'xshatishga harakat qilmang.

g) Turmush o'rtog'ingiz fe'lini qadrlang, shundayligicha qabul qiling, aynan o'sha sizda yo'q bo'lgan fazilatlarni hurmat qiling.

h) Qadriyatlarinigiz haqida gaplashing, oilaviy tarixingiz bilan bo'lishing, umumiy qadriyatlarni yarating.

i) Do'st bo'ling, bir biringizni baxtiyor qilishga harakat qiling (oilada faqat muhabbat bo'lib do'stlik bo'lmasa, bunday oilalarda uzoq baxtiyor hayot bo'lishi qiyin, er-xotin bir-biri bilan do'st kabi mehribon va hurmatda bo'lishi kerak).

j) Bir-biringiz bilan gaplashing (faqat muammolar bilan cheklanib qolmaydigan, yaxshi hayot kechirayotganligingiz haqidagi suhbat oilaga birlik keltiradi).

k) Jinsiy aloqda garmoniya. Bir-biringizni doimo xursand qiling, ehtiyojlarinigiz haqida gaplashing

l) Bir-biringizdan dam olib turing (safarlar, dugona va do'stlar bilan uchrashuvlar, ota-onanikiga borib turish).

m) Umumiy rejalar qiling

n) Kelajakni chiroyli qilish uchun umumiy orzular yarating.

Oila va oilaviy qadriyatlar doimo chambarchas bog'liq va bir-birisiz mavjud emas. Agar oila bo'lmasa, oilaviy qadriyatlar tabiiy ravishda o'z ma'nosini yo'qotadi. An'anaviy oilaviy qadriyatlar g'amxo'rlik va sevgiga asoslanadi. Oilaning bosh sarboni ota bo'lsa, ona oilaning tinchligini mustahkamlovchi, unda voyaga yetayotgan farzandlarlar tarbiyasi bilan shug'ullanuvchi, mehr-muhabbat ulashuvchi muqaddas zot sanaladi. Azaldan oila-muqaddas dargoh, nikoh esa buzilmas rishta sanaladi. Oila mustahkam, tinch, halol va pok bo'lsa, jamiyat ham osoyishta, mustahkam, farovon bo'ladi. Aksincha, oilalarda parokandalik, buzg'unchilik bo'lsa, o'sha jamiyat buziladi, tichlik, hotirjamlik yo'qoladi, u oqibatda chuqur tanazzulga yuz tutadi. Baxtli oilalar tufayli baxtli jamiyat vujudga keladi [6].

Ma'naviy jihatdan bir-biriga sabr qilish lozim bo'lganiday, moddiy jihatdan ham qanoatli va sabrli bo'lish juda muhimdir. Oilaning tinch, farzandlarning baxtli bo'lishligida er-xotinning har ikkisi ham oiladagi o'z burchlarini astoydil ado etishga intilishlari muhimdir. Mustahkam va saodatli oilada er-xotin o'zaro totuv yashashi bir-birining yaxshi va yomon jihatlarini ko'tarishi, ayb va kamchiliklarini kechirishi, tinch va totuv yashashi lozim.

IQTIBOSLAR/СНОСКИ/REFERENCES

1. Абрамова Г.С. Практическая психология. М. 2015.
2. Атватер И., Даффи К. Психология для жизни. М. 2008.
3. Буякас Т.М. Основания и условия профессионального становления студентов-психологов. М. МГУ. 2005.
4. Вачков И.В., Гриншпун И.Б., Пряжников Н.С. Введение в профессию «психолог» Москва, Воронеж, 2002-2007 г
5. Myers D.G. Psychology. Ninth Edition. - Worth Publishers. 2010. -
6. Philip J. Corr, Gerald Matthews. Personality Psychology. Cambridge University Press 2009.- 906 R.
7. Psychology as the Behaviorist Views it John B. Watson (1913) First published in Psychological Review, 20, 158-177.
8. Barotov Sh.R. Psixologik xizmat: Magistrлар uchun darslik. – Т.: “Navro‘z” nashriyoti, 2018. – 344 b.
9. G‘oziev E.G‘. Umumiy psixologiya Т; “Universitet” nashriyoti, 2012. 490b.
10. Avezov O.R. va boshq. Psixologiya nazariyasi va tarixi. Т: “O‘zbekiston faylasuflari jamiyati” nashriyoti, 2019.
11. Avezov O.R. va boshq. Shaxs psixologiyasi. В; Durдона, 2019.
12. Avezov O.R. va boshq. Deviant xulq-atvor psixologiyasi. – В. “Buxoro viloyat bosmaxonasi MChJ nashriyoti”, 2019. 494 b.

ISSN: 2181-4066
DOI Journal 10.56017/2181-4066

ПЕДАГОГИК ВА ПСИХОЛОГИК ТАДҚИҚОТЛАР

I-ЖИЛД, 5-СОН

ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ И ПЕДАГОГИЧЕСКИХ
ИССЛЕДОВАНИЙ

ТОМ-I, НОМЕР-5

PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL STUDIES

VOLUME-I, ISSUE-5

«Педагогик ва психологик тадқиқотлар» электрон журнали 2022 йил 22 декабрь куни № 054834-сонли гувоҳнома билан оммавий ахборот воситаси сифатида давлат рўйхатидан ўтказилган.

Муассис: «IMFAKTOR Pages» масъулияти чекланган жамияти.

Таҳририят манзили: 100152, Тошкент шаҳри, Учтепа тумани, “Ватан” МФЙ, Чилонзор 24-мавзеси, 2-уй.

Телефон номер: +99894-410 11 55

Эл. почта: tahririyat@imfaktor.uz

Веб-сайт: www.imfaktor.uz